

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

XAKIMOVA DILDORA IKROMOVNA

**FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING HARBIY DISKURSDA
FAOLLASHUVINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI
(ingliz va o‘zbek tillari misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим**

**Contents of the abstract of dissertation of Doctor of philosophy (PhD)
in philological sciences**

Xakimova Dildora Ikromovna

Frazeologik birliklarning harbiy diskursda faollashuvining pragmatik xususiyatlari
(ingliz va o'zbek tillari misolida).....3

Хакимова Дилдора Икромовна

Прагматические особенности функционирования фразеологических единиц
в военном дискурсе (на материале английского и узбекского языков).....27

Khakimova Dildora Ikromovna

Pragmatic peculiarities of phraseological units in military discourse (on the
material of English and Uzbek languages).....53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....57

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

XAKIMOVA DILDORA IKROMOVNA

**FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING HARBIY DISKURSDA
FAOLLASHUVINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI
(ingliz va o‘zbek tillari misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2019.3.PhD/Fil 1000 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertasiya Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdchti.uz) hamda "ZiyoNyet" Axborot-ta'lim portalida www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan

Ilmiy rahbar: Nasrullayeva Nafisa Zafarovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar: Yaxshiyev Ashur Abdiyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Radjabova Marjona Axmadovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Dissertasiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil «8» aprel soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'ladi. (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 233-78-43; faks (998966) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz).

Dissertasiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93. Tel.: (99866) 233-78-43, faks: (99866) 210-00-18.

Dissertasiya avtoreferati 2023 yil «27» mart kuni tarqatildi.
(2023 yil «27» mart dagi № 62 raqamli reyestr bayonnomasi)



[Handwritten signature]

I.M.Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

G'.Q.Mirsanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

Sh.S.Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

[Handwritten signature]

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertasiyaning dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida kasbga oid til birliklarining qo'llanishi, ularning ma'no tabiati shuningdek, ma'lum bir sohada qo'llanilish imkoniyatlari va pragmatik xususiyatlari tobora ko'proq ilmiy tadqiqot ob'yektiga aylanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, harbiy kasbiy leksika alohida ahamiyat kasb etadi, chunki chet tilini bilish harbiylarga harbiy professional yo'nalishdagi ma'lumotlardan oson foydalana olish imkoniyatini beradi. Harbiy leksika uslubiy bo'yoq va pragmatik mazmunga ega bo'lgan turg'un iboralar bo'lib, bu mavzudagi frazeologizmlar, shubhasiz, harbiy-siyosiy nutq doirasida madaniyatni yaxshilash va harbiylarning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Dunyoning yetakchi tadqiqot maktablarida ma'lum bir sohada qo'llanadigan frazeologik birliklarining semantik va funksional xususiyatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Harbiy sohada foydalaniladigan frazeologik birliklarining yasalishi, til va nutqda qo'llanishi, boshqa tillarga tarjima qilinish xususiyatlari, semantik, pragmatik va konnotativ ma'nolarining mos kelishi bilan bog'liq muammolar alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bunday frazeologik birliklar, asosan, harbiy xizmatchilar tomonidan atrofdagi dunyoning muayyan vaziyati yoki ob'ekti to'g'risida nuqtai nazarni ifodalash, mintaqaviy va xalqaro miqyosda sodir bo'layotgan voqealarga o'z bahosini berirish uchun ishlatiladi, shuningdek, harbiylarning harbiy-professional tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O'zbekiston tilshunoslari oldiga kasbiy ahamiyatga molik til birliklarini o'rganish, shuningdek, maxsus lo'g'atlar va ma'lumotnomalar tuzish bo'yicha qator vazifalar qo'yildi. Bugungi kunda mamlakatimizda harbiy leksika shakllanish va rivojlanish bosqichida bo'lib, milliy xususiyat kasb etgan holda, lo'g'at tarkibini o'zbekcha iboralar bilan boyitib bormoqda. Bu jarayonda kasbiy leksikaning alohida qatlami bo'lgan harbiy mavzularga oid frazeologizmlar muhim rol o'ynaydi. Harbiy mavzu frazeologizmlari, shubhasiz, harbiy-siyosiy diskurs doirasida harbiylarning madaniyatini oshirish va dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi. Bunday frazeologik birliklar, asosan, harbiylar tomonidan atrof muhitdagi muayyan vaziyat yoki ob'yekt to'g'risida nuqtai nazarni ifodalash, mintaqaviy va xalqaro miqyosda sodir bo'layotgan voqealarga o'z bahosini bildirish uchun ishlatiladi, shuningdek, harbiylarning harbiy-professional tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi. Mamlakatimizning xorijiy davlatlar bilan harbiy sohada hamkorligi, harbiy xususiyatga ega bo'lgan tajriba va axborot almashuvi, harbiy kadrlar tayyorlash bo'yicha qo'shma trening va seminarlar o'tkazish harbiylardan chet tilini bilishni talab qilmoqda. Darhaqiqat, harbiylar boshqa mutaxassislar singari, o'zlarining kasbiy faoliyatini amalga oshirish va harbiy kasbiy xarakterdagi kommunikativ vazifalarni hal qilish uchun chet tillarini bilishlari

zarur. Harbiylarga chet tillarini o'rgatish nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-madaniy omillarga ham tayanadi.

Mazkur dissertasiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi "2022-2026-yillardagi Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmonlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son, 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qarorlari va bu boradagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertasiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining 1. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innivasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" doirasidagi ustuvor yo'nalishga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Harbiy leksika D.Bolinger, J.Sheard, K.Hudson, Frezer Edward, Gibbons John¹ va boshqa xorijiy tilshunos olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Harbiy leksika va uning semantik xususiyatlari D.Bolinger ishlarida o'rganilgan. J.Sheard ishida inglizcha so'zlarning yasaliş modellari o'rganilgan. K.Hudson ning tadqiqotlari professional jargonlarga bag'ishlangan. Frezer Edward va Gibbons Jon harbiy dengiz lo'g'atini tuzishgan.

Hamdo'stlik mamlakatlari tilshunoslari orasida harbiy leksika muammolari B.V.Kiselev, V.I.Shlyaxov, M.G.Boyko, L.N.Venediktova, S.B.Volkova, Yu.G.Kocharyan, V.B.Kryachko, M.N.Latu, P.I.Lofovoy, T.V.Loseva-BaxtiyoroVa, I.P.Massalina, P.J.Mitchell, V.N.Shevchuk va boshqalarning²

¹Bolinger D. Language: The Loaded Weapon. – London: Longman, 2005. – 261 p.; Sheard J. A. The words of English Format. – Boston: Book. – 344 p.; Hudson K. The Jargon of the Professions. – London, 2010. – 146 p.; Fraser Edward, Gibbons John. Soldier and Sailor Words and Phrases. – New York: E.P. Dutton and Company, 2004. – 372 p.

² Киселев Б.В. Англо-русский словарь военной и сопутствующей лексики. – Москва: АСТ: Восток-Запад, 2005. – 283 с.; Шляхов В.И. Российская и американская военная разговорная среда в словах и выражениях. – Москва: URSS, 2011. – 328 с.; Бойко М.Г. Структурно-семантические особенности формирования бронетанковой терминологии в английском языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Омск: ОГУ, 2011. – 24 с.; Вenediktova Л.Н. Концент «война» в языковой картине мира (сопоставительное исследование на материале английского и русского языков): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Тюмень, 2004. – 20 с.; Волкова С.Б. Формирование концепта «военной службы» и особенности его репрезентации в англоязычном

ishlarida o'rganilgan. L.N.Venediktova ingliz va rus tillari olamining lisoniy manzarasida "urush" konseptini tadqiq etgan. S.B.Volkova "harbiy xizmat" konseptining shakllanish jarayonini va uning ingliz tili tarixiy badiiy diskursida ifodalanishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgangan. Yu.G.Kocharyanning ilmiy ishi ingliz tili harbiy leksikasida qisqartmalar muammolariga bag'ishlangan. V.B.Kryachko nomzodlik dissertasiyasida ingliz va rus lingvomadaniyatlarida "urush" konsentrosferasini o'rgangan.

O'zbek olimlari orasida harbiy leksika tadqiqi bilan H.A.Dadaboyev, A.M.Kurganov, F.I.Ergasheva, S.E.Erkinov¹ va boshqalar shug'ullangan. Masalan, A.M.Kurganov ingliz va o'zbek tillaridagi harbiy atamalarning lingvomadaniy xususiyatlariga bag'ishlangan nomzodlik dissertasiyasini himoya qilgan. S.E.Erkinovning PhD dissertasiyasi ingliz tilida harbiy-professional til birliklarining tizimli va funksional jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.

Dissertasiya tadqiqoti Samarqand davlat universitetining "Tilshunoslikning zamonaviy aspektlari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi harbiy diskurs frazeologik birliklarining pragmatik mazmunini, ularning shakllanishi va qo'llanishining universal va o'ziga xos xususiyatlari hamda qonuniyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

komponent va sema tahlili asosida harbiy diskurs frazeologik birliklarini murakkab harbiy atamalardan ajratib turadigan xususiyatlarni ko'rsatish hamda taqqoslanayotgan tillarda harbiy diskurs frazeologik birliklaridan foydalanishning pragmatik vazifasini aniqlash;

harbiy ob'yektlar, harbiy harakat va jarayonlarni nomlash uchun harbiy diskursdagi ingliz va o'zbek frazeologik birliklarining tasnifini ishlab chiqish;

историческом художественном дискурсе: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Москва: МГУ, 2011. – 24 с.; Кочарян Ю.Г. Аббревиация в английской военной лексике: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Москва: ВИ, 2007. – 24 с.; Крячко В.Б. Концентосфера «война» в английской и русской лингвокультурах: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Волгоград, 2007. – 24 с.; Лату М.Н. Англоязычная военная терминология в ее историческом развитии: структурно-семантический и когнитивно-фреймовый аспекты: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону: РГУ, 2009. – 24 с.; Лозовой П.И. Смысловое восприятие иноязычного научно и военно-технического текста (на материале современной английской литературы по авиации и космонавтике): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Москва: ВИ, 2008. – 22 с.; Лосева-Бахтиярова Т.В. Военная лексика тюркских языков (названия вооружения): Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2005. – 240 с.; Массалина И.П. Средства выражения связующей функции в английском языке военно-морского дела: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Калининград: КГУ, 2009. – 24 с.; Митчелл П.Дж. Английский военный сленг: понятия, способы образования и тематическая классификация // Язык и культура. – Томск, 2014. - № 3. – С. 64-73.; Шевчук В.Н. Производные военные термины в английском языке: Аффиксальное словопроизводство. – М.: Воениздат, 2003. – 231 с.

¹ Дадабоев Х.А. Военная лексика в староузбекском языке. В кн.: Проблемы лексики староузбекского языка. – Ташкент: Фан, 1990. – С. 5-84.; Курганов А. Военная лексика в тюркологии // Илмиy мунозара: муаммо, уечим ва утуq. – Toshkent, 2019. – С. 103-104.; Эргашева Ф.И. Способы образования английских военных терминов // Преподавание языка и литературы. – Ташкент, 2010. - № 8. – С. 36-44.; Эркинов С.Э. Системно-функциональные аспекты военно-профессиональных языковых единиц (на материале английского языка): Дисс. ... PhD по филол. наукам. – Самарканд: СамГИИЯ, 2020. – 156 с.

ingliz va o‘zbek tillaridagi harbiy diskurs frazeologik birliklarining leksik-semantik va pragmatik mazmunidagi o‘xshashlik va farqlarni tizimlashtirish;

taqqoslanayotgan tillardagi harbiy mavzularga oid maqollarining konnotativ belgilarini ochib berish;

harbiy diskursga oid ingliz va o‘zbek frazeologik birliklarining badiiy adabiyot matnlarida qo‘llanilishining semantik va pragmatik xususiyatlarini kuzatish.

Tadqiqotning ob’yekti sifatida ingliz va o‘zbek tillaridagi harbiy mavzu frazeologik birliklari tanlangan. Ular asosan A.V.Kunin tomonidan tuzilgan Inglizcha-ruscha frazeologik lo‘g‘atidan (1967, 2-ta jildda) va M.Sodiqova tomonidan tuzilgan O‘zbekcha-ruscha frazeologik lo‘g‘atidan (1989) tanlangan.

Tadqiqotning predmetini harbiy diskursdagi ingliz va o‘zbek frazeologik birliklarining semantik xususiyatlari, konnotativ belgilari va pragmatik vazifalari tashkil qildi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida lingvistik tasvirlash usuli, komponent va sema tahlil, namuna tanlash usuli(lo‘g‘atdan), madaniyatlararo tahlil hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

harbiy diskurs frazeologik birliklarining murakkab harbiy atamalardan farqlovchi semantik-stilistik, pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari ochib berilib, taqqoslanayotgan tillarda harbiy diskurs frazeologik birliklaridan muayyan kommunikativ aktda hamda badiiy matnda foydalanishning pragmatik funksiyalari aniqlangan;

harbiy ob’yektlar, harbiy harakat va jarayonlar nominasiyasi uchun ingliz va o‘zbek tillaridagi harbiy diskurs frazeologik birliklari mavzuiy guruhlar bo‘yicha tasniflangan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi harbiy diskurs frazeologik birliklarining leksik-semantik va pragmatik mazmunidagi nominativ va kommunikativ vazifalari bo‘yicha o‘xshashliklari va harbiy unvonlarni nomlashda, atoqli otlardan va rang ramzlaridan foydalanish boyicha lingvomadaniy va etimologik farqlari ochib berilgan;

qiyoslanayotgan tillardagi maqollarning harbiy mavzularga oid ijobiy va salbiy baholash, ma’qullash, ta’riflash, maqtash, rad etish kabi konnotativ xususiyatlari ochib berilgan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi harbiy diskurs frazeologik birliklarining badiiy adabiyot matnlarida qo‘llanilishining harbiy ob’ektlarni tasvirlash bo‘yicha semantik va kommunikativ maqsadga oid pragmatik xususiyatlari tizimlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

ingliz va o‘zbek frazeologiyasining kasbiy qo‘llanish sohasi nazariyasi boyitilgan;

shakllanishning grammatik modellari va semantik xususiyatlariga ko‘ra harbiy diskursga oid ingliz va o‘zbek frazeologik birliklarining tasnifi ishlab chiqilgan;

Ingliz va o'zbek tillarini o'rganishda harbiy mavzulardagi frazeologik birliklarini tahlil qilish hamda kasbiy foydalanish sohasida o'quv adabiyotlari va lo'g'atlarni yaratish tamoyillarini takomillashtirish bo'yicha taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan tadqiqot usullari, fundamental ilmiy-nazariy qoidalar, ko'p miqdorda tahlil qilingan materiallar, ushbu sohadagi oldingi tadqiqotlarning nazariy qoidalari tajribasi, shuningdek, tadqiqot natijalarining dissertasiya ishining nazariy mazmuniga muvofiqligi bilan ta'minlanadi; xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga tatbiq etilgan, olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati amalga oshirilgan tahlil asosida olingan natijalardan foydalanish va maxsus leksika va frazeologiyaning alohida qatlamlarini, shu jumladan boshqa tillar materialida ham, har tomonlama o'rganishni yanada rivojlantirish uchun istiqbollar ochadigan xulosalar bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, dissertasiya materiallaridan o'quv jarayonida "Leksikologiya", "Frazeologiya", "Qiyosiy tilshunoslik", "Qiyosiy tipologiya", "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" fanlaridan ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini o'tkazishda, maxsus kurslarni o'qitishda, lug'atlar va ma'lumotnomalar tuzishda, shuningdek, tadqiqot yo'nalishi doirasida dissertasiyalar va ilmiy maqolalar yozishda foydalanish mumkin".

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Harbiy diskursga oid frazeologizmlarning pragmatik mazmuni va struktur-semantik xususiyatlarining tadqiqi asosida:

harbiy diskursga oid frazeologizm va maqollarning semantik-stilistik va pragmatik mazmunining tahlil xulosalari FA-F1, GOO2 "Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarning nazariy masalalarini tadqiq etish" fundamental tadqiq loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpoq bo'limining 2022 yil 20 maydagi 17.01/116 -son ma'lumotnomasi). Dissertasiya materiallari harbiy sohaga oid frazeologik birlik va maqollarning lingvomadaniy mazmunini tahlil metodikasini o'rganish hamda ularning pragmatik mazmunini tadqiq qilish uchun zamin yaratgan;

ingliz va o'zbek tillaridagi harbiy diskurs frazeologik birliklarining badiiy adabiyot matnlarida qo'llanilish xususiyatlari FA-F1-005 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" fundamental tadqiq loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpoq bo'limining 2022 yil 20 maydagi 17.01/116-son ma'lumotnomasi). Material harbiy sohaga oid frazeologizm va maqollarning leksik-semantik mazmunini o'rganish va harbiy mavzu doirasida maxsus kurslarni ishlab chiqish uchun xizmat qilgan;

ingliz va o'zbek tillaridagi harbiy diskurs frazeologik birliklarining leksik-semantik va pragmatik mazmunining tahlil natijalari Samarqand davlat chet tillar

insituti Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi 585845-EP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: “Computational Linguistics at Central Asian universities” grant loyihasi doirasida institutning o‘quv jarayoni va xalqaro loyihalarni amalga oshirishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar insitutining 2022 yil 31 avgustdagi 2400/30.02.01-son ma’lumotnomasi). Foydalanilgan material harbiy diskursdagi frazeologik birliklarning semantik ma’nosini ochib berish va pragmatik funksiyalarni aniqlash imkonini bergan;

ingliz va o‘zbek tillarda harbiy diskurs frazeologik birliklaridan muayyan kommunikativ aktda hamda badiiy matnda foydalanishning pragmatik mazmunini aniqlash bo‘yicha tavsiyalar hamda amaliy takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Samarqand viloyatining “STR” davlat telekanalining madaniy-ma’rifiy ko‘rsatuvining “Assalom, Samarqand!” mavzusidagi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Samarqand viloyat Teleradiokompaniyasining 2022 yil 25 maydagi 01-11/191-son ma’lumotnomasi). Natijada nutq jarayonida harbiy sohaga oid guruh vakillari tomonidan muayyan vaziyatda, harbiy sohaga oid hujjatlarni rasmiylashtirishda va tarjima qilishda, chet el davlatlari harbiy soha vakillari bilan muloqot jarayonida harbiy diskurs frazeologik birliklaridan o‘rinli foydalanish, ularning muqobil tarjimalarini tanlash va samarali qo‘llash haqida mulohazalar yuritilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobeasiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 5 ta xalqaro va 3 ta respublika konferensiyalarda ma’ruzalar ko‘rinishida muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertasiyaning asosiy natijalari 15 ta ilmiy maqolada o‘z aksini topgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan doktorlik ishining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan nashrlarda, jumladan 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertasiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertasiya kirish, uch bob, boblar bo‘yicha xulosalar, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertasiyaning hajmi 138 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertasiyaning “**Kirish**” qismida mavzusning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqot ob‘yekti, predmeti va materiali aniqlangan; tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan. Olingan natijalarning ishonchliliigi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga tadbiiq etilishi, aprobeasiyasi, nashr qilingan ishlar, natijalar va dissertasiyaning tuzilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertasiyaning “**Harbiy diskurs frazeologik birliklarining nazariy talqini**” (uch bobdan iborat) deb nomlangan birinchi bobida ma’lum bir qo‘llanish sohasining frazeologik birliklari bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning hozirgi

holati yoritiladi, harbiy diskursning frazeologik birliklari tahlil qilinadi va ularning murakkab harbiy atamalardan farqi ochib beriladi, hamda harbiy mavzulardagi frazeologik birliklarning komponent va semalar bo'yicha tahlili amalga oshiriladi.

So'nggi yillarda lingvistik tadqiqotlarda tilning milliy-madaniy o'ziga xosligi muammosi ko'p ko'tarilmoqda, chunki har bir til unda so'zlashuvchi xalqning madaniyatini aks ettiradi¹. Eng ko'p, tilning madaniy mazmuni so'zlarning turg'un birikmalarini, klishelarni, maqollarni hamda iboralarni o'rganadigan frazeologiyada namoyon bo'ladi. Frazelogiyaning o'rganish ob'yekti frazeologik iboralar bo'lib, ammo tayyor va yaxlit birliklar sifatida tayyor holda qo'llanishi bilan ajralib turadigan turg'un so'z birikmalaridir². A.V.Kunin "frazelogik birlik" atamasini "to'liq yoki qisman qayta anglanadigan ma'noga ega so'zlarning turg'un birikmasi"³ tarzida izohlaydi.

Har qanday tilning frazeologiyasi chuqur milliy xususiyatga ega bo'lib, u bilan tanishish xalqning tarixi va xarakterini yaxshiroq tushunish imkonini beradi, chunki frazeologik birliklar tarixiy voqealarni, xalqning ularga munosabatini, shuningdek, insoniy fazilatlar va kamchiliklarni aks ettiradi⁴. Muayyan tilda so'zlashuvchilar olamining milliy manzarasini ochib beruvchi frazeologik birliklarni o'rganish zamonaviy tilshunoslikda tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Bunday frazeologik birliklarga harbiy mavzularning frazeologik birliklari kiradi. Harbiy diskursning frazeologik birliklari va ularning prototiplari orasidagi semantik maydonlarni aniqlash uchun, eng avvalo, bunday frazeologik birliklarning jonli ichki shaklini o'rganish zarur. Prototip nazariyasining zamirida, Sh.S.Safarov to'g'ri ta'kidlaganidek, kategoriya, ya'ni tushuncha paydo bo'lishini talqin qilish muammosi qo'yilgan⁵.

Dissertasiya ishida frazeologik birliklarning strukturaviy va grammatik tashkil etilishini tahlil qilish quyidagi xususiyatlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi: 1) frazeologik birliklar asosiy komponentining morfologik ifodasi; 2) frazeologik birliklarning sintagmatik tuzilishi, ya'ni frazeologik birliklarning har xil turdagi (bog'lovchi yoki ergashgan) sintaktik aloqaga ega bo'lgan so'z birikmalar yoki gaplar shaklida tashkil etilish; 3) frazeologik birliklarda ergashgan (atributiv, ob'yektiv frazeologik birliklar) sintaktik aloqalarning tabiati; 4) sintaktik munosabatlarning ifodalanish usuli (moslashuv, boshqaruv, bitishuv); 5) frazeologik birlikda tobe elementning asosiyga nisbatan o'rni.

Har qanday tilning frazeologik fondini boyitish manbalaridan biri kasbiy nutq bo'lib, u ko'pincha tilda mavjud leksikaga tayanadi, lekin metaforik o'zgarishlar asosida yangi ko'chma ma'nolarni shakllantiradi. Masalan, harbiy mavzulardagi frazeologik birliklar yangi ma'nolarga ega bo'lishi va keng tarqalgan turg'un

¹Панжиева Н.Н. Национально-культурная специфика стилистического приёма // Актуальные проблемы современной лингвистики. Сборник научных статей. – Ташкент: VNESHINVESTPROM, 2021. – С. 153.

²Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – Москва: Высшая школа, 1985. – С. 4.

³Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Москва: Высшая школа, 1986. – С. 120.

⁴Расулова М.И. Основы лексической категоризации в лингвистике. – Ташкент: Фан, 2005. – С. 207.

⁵Safarov Sh.S. Semantika.—Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. – B. 219.

iboralaridan ajralib turishi mumkin¹. Harbiy ma'noga ega metaforik frazeologik birlikka misol keltiramiz: *cast the last anchor*– o'ldirilmoq, halok bo'lmoq (jangda). So'zma-so'z tarjimasi: "oxirgi langarni tashlamoq", ya'ni oxirgi marta jangda birorta harbiy harakatni bajarmoq va dushman zarbasidan halok bo'lmoq. Majozlashuvga asoslangan frazeologik birlikning o'zbekcha namunasi: harbiy samolyotdan tashlab yuboriladigan qurolni anglatuvchi *ag'dargich-qanot*. Metonimik frazeologik iboraga misolni ko'rib chiqamiz: *hit the silk*– parashyut bilan sakramoq. So'zma-so'z tarjimasi: "ipakni siltab tortmoq". Metonimik qayta anglanish markazida *silk* - ipak leksemasi turadi, ya'ni parashyutlar tayyorlanadigan material. Misoldan ko'rinib turibdiki, butun predmet (parashyut) o'rniga uning qismi (u yasalgan moto) ishlatilgan. Metonimik transformasiyali o'zbekcha frazeologizmga yana bir misol: *havo jangi* (harbiy havo kuchlari o'rtasidagi jang).

Zamonaviy harbiy atama tizimining holati ancha o'zgaruvchan. U yangi harbiy texnika va qurollarni bildiruvchi yangi iboralarning paydo bo'lishi, shuningdek, harbiy tizimning tashkil etilishi tufayli doimiy o'zgarishlarga duch keladi: *flying banana* - vertolyot; *flying devil* - qo'l granatasi; *sovuq munosabatlar urushi*. Bunday frazeologik birliklar noharbiy xususiyatga ega leksika asosida yasaladi, ammo ular harbiy terminologiya va adabiy til o'rtasida oraliq o'rinni egallab, majoziy ma'no va ekspressiv-emosional tusga ega bo'ladi. *Rok-n-roll* frazeologizmi harbiy mavzularning tarkibiy qismini o'z ichiga olmaydi, ammo u o'zining semantik ma'nosini o'zgartiradi va ochiq avtomatik olovni harbiy harakatlar turi sifatida belgilaydi. Harbiy mavzularga aloqador bo'lmagan komponentlarga ega iboralar harbiy frazeologik birliklarga aylanishi mumkin: *see-saw*- turli xil natijalarga ega bo'lgan janglar seriyasi, *cloak and daggers service* - maxfiy xizmat, partizanlik.

Harbiy frazeologik birliklarning ma'nosini tushunish uchun yetarli fon bilimlari zaxirasi talab qilinadi. *Gulliver effect* iborasi katta otryadning dushman kuchlari tomonidan tor-mor qilingan holatini anglatadi. Ushbu holatda, iboraning ma'nosi J.Svift romanining bosh qahramoni - o'z tanasining kattaligi bo'yicha mahalliy liliputlardan bir necha o'n barobar katta bo'lgan Gulliver haqidagi fon bilimlar yordamida voqelanadi.

Murakkab harbiy atamalarning frazeologiyaga kiritilishi frazeologik birliklar tarkibiy qismlarining semantik bog'liqligini tahlil qilish kabi tadqiqot usulini bir tomonlama qo'llash asosida frazeologik birliklarning nominativ funksiyasini qayta baholash natijasidir². Semalarni ajratish usulining o'zi mutlaqo ob'yektiv bo'lishi mumkin emasligi sababli, lo'g'at ta'riflaridan foydalanish va nutqda qo'llanish misollaridan qo'shma harbiy atamalar va frazeologik birliklarning semantik inventarini o'rnatish kerak. Qo'shma harbiy atamalarning semantik tarkibida aniqlanishi va namoyon bo'lishi kerak bo'lgan asosiy jarayonlar va hodisalar

¹Дубенец Э.М. Лингвистические изменения в современном английском языке. – Москва: Глосса-Пресс, 2003. – С. 165.

²Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Л.: ЛГУ, 1963. – С. 37.

quyidagilar: a) murakkab harbiy atamalarni harbiy diskursga kiritadigan maxsus semalar: ingliz tilida: *arms, guard, soldier, lieutenant*; o‘zbek tilida: *urush, jang, qurol, qo‘mondon* va boshqalar; b) yangi frazeologik ma‘noning ichki shakli asosiga kiradigan ikkilamchi yoki potensial semalar: ingliz tilida: *run the guard* - qo‘riqchilarga sezdirmay o‘tib ketmoq, *relieve the guard* - qo‘riqchini o‘zgartirish; o‘zbek tilida: *soqchidan qutulmoq*; c) qo‘shma harbiy atamaning semantik strukturasi sintagmatik bog‘lanishlarning sema darajasida majburiy aks etishi: ingliz tilida: *to put somebody on his guard* – kimnidir ogohlantirmoq; o‘zbek tilida: *ikki tomoni ko‘tarmali tor xandak*.

A.V.Kununning Inglizcha-ruscha frazeologik lo‘g‘atida voqeani belgilash bilan bog‘liq “harbiy” belgili *absence without leave* – so‘roqsiz (ruxsatsiz) ketish iborasi qayd qilingan¹. Agar bu ifodani alohida semalarga ajratsak, unda quyidagilarni olamiz: S1 – *absence*, S2 – *without*, S3 – *leave*. S1 semasi semantika nuqtai nazaridan ustun semadir, chunki u “yo‘qlik”ni anglatadi, ya‘ni struktur yondashuv nuqtai nazaridan ham ruxsatsiz ketish, chunki u ushbu iboraning asosiy oti bilan ifodalangan. S2 va S3 semalari aniqlovchi elementlar bo‘lib, “xayrlashmasdan”, ya‘ni “ruxsatsiz” ma‘nosini bildiradi. Bu qo‘shma harbiy atamada S3 semasi “to leave” harakat fe‘lining “leave” otiga aylanishining yorqin namunasidir.

O‘zbekcha *otish joyi maydoni* qo‘shma harbiy atamasi “otish mashg‘ulotlari uchun maxsus jihozlangan maydon” ma‘nosi bilan uch semega bo‘linadi: S1 – otish (otmoq), S2 – joyi va S3 – maydoni (platforma). Ular birgalikda "otishni o‘rgatish joyi bo‘lgan maydoncha" ma‘nosini tashkil qiladi. Bu shuni anglatadiki, qo‘shma harbiy atamalar va harbiy diskursning frazeologik birliklarini ajratishda farq mavjud bo‘lib, bu farq uslubiy ma‘no va ekspressiv-emosional xususiyatlarning aks etishida namoyon bo‘ladi. Harbiy diskurs frazeologizmlari motivlashgan obrazlilik bilan ajralib turadi, qo‘shma harbiy atamalar esa faqat muayyan ob‘yektlar yoki hodisalarni nomlaydi. Misollarni ko‘rib chiqamiz:

“*Big guns to Join Talks on Ulster*” [Morning Star]

1. “*The stage*”, he went on, “*is all right if you can be one of the big guns but there’s nothing to the rest of it. It takes a long while to get up*” [Th.Dreiser, “Sister Carry”, p. 31].

Qo‘shma harbiy atama – big gun S1 – big caliber heavy, S2 – gun

Frazeologik birlik – big gun, S1 – important, S2 – a person.

Harbiy diskursning frazeologik birliklari orasida harakatni bildiruvchi juft va sinonimik birliklar mavjud: *come out of action* - jangdan chiqmoq, harakatdan qolmoq, va *put out of action* - ishdan chiqarmoq, urib tushurmoq, buzmoq². Ko‘rinib turibdiki, ikkala iborada ham S2 (out of) va S3 (action) semalari ma‘no va tuzilish jihatdan mos keladi. Biroq, ularning S1 semalari har xil: «come» va «put» fe‘llari. O‘zbek frazeologik fondida ham juft sinonimik iboralar uchraydi,

¹ Кунин А. В. Англо-русский фразеологический словарь. – Изд. 3-е, испр., в двух книгах. – Москва: СЭ, 1967. – Т.1. – С. 22.

² Кунин А. В. Англо-русский фразеологический словарь. – Изд. 3-е, испр., в двух книгах. – Москва: СЭ, 1967. – Т.1. – С. 26.

masalan, jang *maydonini tashlab ketmoq* va *jangdan qochmoq*.

Taqqoslangan tillardagi harbiy frazeologik birliklarning komponent tahlili bitta asosiy leksema atrofida tuzilgan bir qancha harbiy frazeologik birliklarni aniqladi. Ingliz frazeologik birliklari *appeal to arms* – qurol ishlatmoq, qurolni ishga solmoq; *bear arms*- qurol osib (taqib) yurmoq; *present arms*– soqchilikka olmoq¹ va boshqalar «arms» – qurol bosh leksemasi asosida yasaladi. *Oddiy askar*; *piyoda askar*; *piyoda askarlar* kabi o‘zbek frazeologik birliklari, bitta *askar* komponenti atrofida qurilgan.

Tahlil harbiy diskurs frazeologizmlarida harbiy mavzularga tegishli komponent mavjud bo‘lishini ham, bo‘lmasligini ham ko‘rsatdi. Harbiy frazeologik birliklar qo‘shma harbiy atamalardan ko‘chma ma’no va motivlangan ichki shaklni o‘z ichiga olganligi bilan farqlanadi.

Dissertasiyaning “**Harbiy diskursdagi ingliz va o‘zbek frazeologik birliklarining tasnifi**” deb nomlangan ikkinchi bobida (6 banddan iborat) harbiy predmet va hodisalar, harbiy harakatlar va jarayonlar nominasiyasi uchun ingliz va o‘zbek harbiy frazeologik birliklarning tasnifi ishlab chiqilgan, harbiy idiomatizmlar, idiofrazeomatizmlar va frazeomatizmlar tahlil qilinadi va ingliz va o‘zbek tillaridagi harbiy tematika frazeologik birliklarining strukturaviy xususiyatlari aniqlanadi.

Tasniflash, shubhasiz, tilning universal xususiyati bo‘lib, unga zamonaviy tilshunoslik nazariyasida katta e’tibor beriladi. Tasniflash momenti til nominasiyasining o‘zida mavjud bo‘lib, uni ko‘pincha bevosita kuzatib bo‘lmaydi².

Harbiy ob’jekt va hodisalar quyidagi frazeologik birliklarda ifodalanadi: *ruse of war* - harbiy ayyorlik; *the short robe* - harbiy kiyim; *daydi o‘q*; *jangu jadal* (jang; janjal).

Qurol nomlarini bildiruvchi ba’zi ingliz frazeologik birliklari qiziqish uyg‘otadi: *Scotch boot* - (esk.) qiynoq anjomi, temir botinka, “ispan etigi”; *big boy* - (harbiy jarg.) og‘ir qurol; *brown Bess*- (tarix.) chaqmoq miltiq (18-asrda ingliz armiyasi iste’molida bo‘lgan)³. O‘zbek frazeologiyasida qurol turlarini nomlovchi o‘xshash iboralar aniqlanmadi.

Ingliz tilining frazeologiyasida turli, ba’zan oldindan aytib bo‘lmaydigan harbiy harakatlarni bildiruvchi iboralar qayd etilgan: *return to the charge* - yana hujumga o‘tmoq, hujumni davom ettirmoq; *to fight a battle* - jang boshlamoq; *to carry out on invasion* - bostirib kirmoq. Quyidagi o‘zbek frazeologik birliklari ham harbiy harakatlarni ifodalaydi: *ichida ola chiqibdi* (o‘rtasida nizo paydo bo‘ldi); *jazosini bermog* = *dodini bermog* (jazolamoq).

Ingliz tili frazeologiyasida antonimlar juda ko‘p bo‘lib, ularning qarama-qarshi ma’nosi semantik jihatdan qarama-qarshi komponentlar tufayli hosil

¹ O‘sha yerda, B. 47.

² Расулова М.И. Проблемы категоризации на уровне текста: понятие и интерпретация // Актуальные проблемы современной лингвистики. Сборник научных статей. – Ташкент: VNESHINVESTPROM, 2021. – С. 158.

³ Кунин А. В. Англо-русский фразеологический словарь. – Изд. 3-е, испр., в двух книгах. – Москва: СЭ, 1967. – Т.1. – С.123.

bo'ladi: *loose the battle*–jangni boy bermoq, jangda yengilmoq va *win the battle* - jangda g'alaba qozonmoq.

Harakatlarni qisqa muddatli va uzoq muddatliga bo'lish mumkin. Qisqa muddatli harakatni ifodalovchi harbiy iboralar: *take service* - harbiy xizmatga kirmoq; armiyaga kirmoq, xizmat qilmoq; *nishonga urmoq*. Uzoq davom etadigan yoki uzoq muddatli harakatlarni ifodalovchi harbiy mavzularning frazeologizmlari: *on service* - xizmat vazifasini bajarishda, xizmatda¹; iskanjaga olmoq - (qistovga olmoq) devorga qisib qo'ymoq; qiyin (mushkul) ahvolga solmoq².

Quyidagi o'zbek frazeologik birliklari pragmatik minnatdorchilik ma'nosiga ega bo'lib, ijobiy bahoni ifodalaydi: *yelkasiga qoqmoq*(maqtamoq, salomlashmoq); *kiftiga qoqmoq*. *Make good one's retreat*– beshikast chekinmoq, yaxshi qutulmoq; *dovrug' solmoq* frazeologik birliklari ijobiy konnotasiyaga ega. Salbiy baho quyidagi frazeologizmlarda kuzatiladi: *gumdon qilmoq* (1) o'ldirmoq, yo'q qilmoq, xarob qilmoq, olib tashlamoq (birovni); 2) yashirmoq); *yer tishlab qolmoq* (mukka tushib yotmoq; behush bo'lib yiqilmoq).

Harbiy jarayonlar quyidagi frazeologik birliklarning semantikasida tasvirlanadi: *a change of base*- chekinish, ketish; *a change of front*- frontning o'zgarishi; *cessation of arms*- harbiy harakatlarni to'xtatish, sulh. Ingliz frazeologiyasida harbiy jarayonlarni bildiruvchi iboralar soni o'zbekcha frazeologizmlar sonidan bir necha barobar ko'pdir.

Harbiy mavzularning frazeologizmlari harbiy sohaga bevosita aloqador bo'lgan komponentni o'z ichiga olishi ham, uni o'z ichiga olmasligi ham mumkin. *Companion (comrade)in arms* (quoldosh, safdosh) frazeologik birligi o'z tarkibiga *arms* (qurol) komponentini olgan va shuning uchun osongina harbiy ma'no kasb etadi. *A red coat* (ingliz askari) frazeologizmi harbiy leksikani o'z ichiga olmaydi, ammo u metonimik ko'chim asosida harbiy ma'noga ega bo'ladi. "Qizil palto" iborasining so'zma-so'z tarjimasi - "qizil mundir (libos)". Haqiqatan ham, kiyim, ya'ni ingliz askarlari kiyadigan qizil forma, metonimiya vazifasini bajaryapdi.

Harbiy leksikani o'z ichiga olgan frazeologik iboralar har doim ham harbiy sohaga tegishli ob'yektlar yoki hodisalarni nomlayvermaydi. Quyidagi iboralar ushbu sohaga aloqador bo'lmagan kishilarni nomlagani sababli qo'llanish chegarasini kengaytiradi: *colonel Chinstrap* – xushchaqchaq odam, ichkilik shinavandasi; *big gun*–mo'tabar zot, korchalon, nufuzli kishi. Antroponimlar harbiy frazeologik birliklar tarkibida keng qo'llaniladi: *G.I.Jane.*- harbiy xodim (oddiy askarlar sostavidagi); *G.I.Joe.* – oddiy (askar).

Agar harbiy qo'llanish sohasining frazeologik birliklarini A.V.Kunin taklif qilgan tasnifga binoan guruhlariga bo'ladigan bo'lsak, unda idiomatik, idiofrazeomatik va frazeomatik mazmunli kichik guruhlar hosil bo'ladi. Idiomatik frazeologik birliklar guruhiga ma'nosi to'liq yoki qisman qayta anglangan

¹ O'sha yerda, b. 808.

² O'sha yerda, b. 121.

soʻzlarning turgʻun birikmalari kiradi. Ular orasida frazeologik iboralarning quyidagi turlari boʻlishi mumkin:

nominativ frazeologik birliklar, ular oʻz navbatida substantiv, adʻyektiv, adverbial va predlogli frazeologik birliklarni oʻz ichiga oladi;

feʼl iboralardan hosil boʻlgan nominativ va nominativ-kommunikativ frazeologik birliklar;

undov va modal frazeologik birliklar;

nutqiy muloqotda keng qoʻllaniladigan maqol frazeologik birliklar¹.

Harbiy soha frazeologik birliklarining katta guruhini substantiv frazeologik birliklar tashkil etadi. Ular turli obʻyektlarni vazifasiga koʻra nomlaydi va mustaqil komponent boʻlgan va frazeologik birlikning gap boʻlagi safatidagi vazifasini belgilovchi ot bilan ifodalangan asosiy komponent bilan oʻzaro bogʻlanadi²: *nominal (probatinary yoki suspended) sentence*- shartli hukm; *yoli bor yigit* (qoʻrqmas kurashchi, haqiqiy erkak).

Funksional jihatdan sifatlar bilan bogʻliq boʻlgan frazeologik birliklar, yaʼni asosiy komponenti sifat boʻlgan frazeologizmlar, adʻyektiv frazeologik birliklar deb hisonlanishi kerak. Ingliz va oʻzbek iboralariga misollar keltiramiz: *a tight rein* – qatʼiy intizom; *strained relations* - keskin munosabatlar; *kuchga toʻlgan* (ayni umrning gullagan chogʻida).

Obʻyektning sifatini bildiruvchi va gap boʻlaklarini bogʻlovchi predloglarni oʻz ichiga olgan adverbial predlogli frazeologik birliklar orasida koʻplab harbiy-kasbiy iboralar topildi: *up in arms*– jangga, kurashga tayyor; *above the battle* – jangdan chetda. Harbiy diskursning adverbial va adʻyektiv idiofrazeomatizmlari ham namoyon boʻldi: *under fire*- 1) harb. dushman oʻti (oʻqi) yomgʻirida; 2) hujumlar ostida; *on parole*- 1) harb. jangovar harakatlarda qatnashmaslik majburiyatini olish (mahbus haqida).

Frazeologiya doirasida harbiy jarayonlar va harakatlar odatda feʼl frazeologik birliklar yordamida ifodalanadi: *clear the decks*- jangga, kurashga tayyorgarlik koʻrmoq; *dig up the hatchet* - urush boshlamoq. Idiofrazeomatizmlar orasida ham feʼl iboralar katta guruhni tashkil qiladi: *stand fire* – 1) harb. matonat bilan dushman oʻti (oʻqi)ga qarshi turmoq; 2) tanqidga dosh bermoq, qiyinchiliklardan chekinmaslik; *return to the charge*- 1) harb. hujumni yana davom ettirmoq.

Tarixiy harbiy iboralar qatoriga quyidagi frazeologizmlar kiradi: *round robin* - imzolar doira shaklida joylashtirilgan petisiya (kim birinchi boʻlib imzolaganini aniqlashning iloji boʻlmasligi uchun); *cross (yoki pass) the Rubicon* - Rubikonni kesib oʻtmoq, muhim qaror qabul qilmoq, qaytarib boʻlmaydigan qadam tashlamoq.

Eng koʻp kichik sinfni v+n (feʼl+ot) tuzilishiga ega frazeologik birliklar tashkil etadi. Oʻzbek tilida obʻyekтли bogʻlanishni ifodalashda yetakchi usul boshqaruv, ingliz tilida esa bitishuv boʻlganligi sababli, oʻzbek tilida boshqaruvga

¹Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Москва: Дубна “Феникс +”, 2005. – С. 296.

²Телия В.Н. Фразеологизм // Языкознание. Большой энциклопедический словарь. – 2-е изд. – Москва: Большая Российская энциклопедия, 1998. – С. 9.

ega ob'yekt postpozitiv tipga ingliz tilidagi bitishuvli ob'yekt postpozitiv tip mos keladi: *carry off a sentry* - qo'rqinchini qo'lga olmoq, "olib tashlamoq"; *keep sentry*—postda turmoq, qorovullik qilmoq. O'zbek tilida bunday iboralar "ot+fe'l" modeliga ko'ra yasaladi: *ko'nglini o'stirmoq* (ilhomlantirmoq; ruhni, kayfiyatni ko'tarmoq; rag'batlantirmoq); *mijja qoqmay chiqmoq* (tunni uyqusiz o'tkazmoq).

"Fe'l + ot (yoki ot + fe'l)" kichik sinfi ikkala tilda ham ko'p: *to hold smbd. (as a) hostage* - kimnidir garov tariqasida ushlab turmoq; *to seize(take) smb. hostage*— kimnidir garovga olmoq; *boshini tikmoq* (boshi bilan kafil bo'lmoq; hayotni xavf ostiga qo'ymoq; kim ucnundir, nima uchundir jonini berishga tayyor bo'lmoq).

Doimiy komponenti sifat bo'lgan v + adj + n (fe'l + sifat + ot) tuzilishli ingliz frazeologik birliklari uchun o'sha tobe-ob'yekt turlari xarakterlidir: *rule with a heavy (yoki high) hand* – mustabid tarzda boshqarmoq, qattiq tutmoq, qattiqqo'llik qilmoq; tizginini qattiq ushlab turmoq (etim. bibl.)¹.

V + prep + n (fe'l + predlog + ot) tuzilishga ega ingliz frazeologik birliklari eng ko'p sonli kichik sinflardan birini tashkil qiladi: *be in the running*- g'alaba qozonish imkoniyati mavjud bo'lmoq; *be out of the running*- o'yindan chiqmoq, g'alaba qozonish imkoniyati yo'q qilmoq.

So'roq tarkibiga ega harbiy frazeologik birlik: *berdisini aytguncha urib o'ldirsanmi?*(oxirigacha gapirishimga qo'ymasdan, nega meni uryapsan?; urishga shoshilmaslik).

Shuni ta'kidlash joizki, ingliz tilida harbiy jarayonlarni ifodalovchi frazeologik birliklarning soni o'zbek tilidagi harbiy frazeologizmlarga nisbatan ko'pni tashkil etadi. Mazkur tadqiqot ishida 1574 ingliz tilidagi harbiy mavzuga oid frazeologizmlar aniqlangan va tahlilga tortilgan, o'zbek tilida esa 892 harbiy frazeologizmlar aniqlanib, tadqiq qilingan. Harbiy diskurs doirasidagi ingliz va o'zbek frazeologizmlar ifodalayotgan ob'yektga ko'ra quyidagicha tasniflandi:

1-jadval


Ingliz va o'zbek harbiy frazeologik birliklarning soni

Ob'yekt turi	Ingliz FB soni		O'zbek FB soni	
	Soni	%	Soni	%
Harbiy ob'yekt yoki hodisa	932	59,3 %	405	45,5 %
Harbiy harakatlar	469	29,8 %	372	41,7 %
Harbiy jarayonlar	173	10,9 %	115	12,8 %
Jami	1574	100 %	892	100 %


Har ikkala taqqoslanayotgan tilda ham tuzilish jihatdan gap bilan o'zaro bog'lanishli bo'lgan frazeologik birliklar mavjud: *put somebody on his good behavior*— odam o'zini ko'rsatishi uchun sinov muddatini bermoq; *jahonning*

¹Кунин А. В. Англо-русский фразеологический словарь. – Изд. 3-е, испр., в двух книгах. – Москва: СЭ, 1967. – Т.1. – С.780.

ketiga o't qo'yadi = dunyoga o't qo'yadi (u butun dunyoni yer bilan yakson qiladi).



1-rasm. Ingliz tilidagi harbiy ob'yekt va hodisa, harbiy harakat va jarayonlarni ifodalovchi frazeologik birliklar



2-rasm. O'zbek tilidagi harbiy ob'yekt va hodisa, harbiy harakat va jarayonlarni ifodalovchi frazeologik birliklar

Qoida tariqasida, qo'shma gaplar (bog'langan va ergashgan qo'shma gaplar) modellariga asoslangan frazeologik birliklar maqollar bo'lib, ular orasida obrazli va obrazli bo'lmagan maqollarni ajratish mumkin. Agar obrazli bo'lmagan maqollarda komponent-so'zlar to'g'ri ma'noda, o'zlarining asl ma'nolarida qo'llansa, obrazli maqollarda komponent-so'zlarning asl ma'nolari qaytadan anglashiladi: *Wars bring scars*– Urush qonni sevadi = *Urush zarar keltirar*; *When war begins, hell opens*- Bir kaltak bilan yuzta jonni o'ldirmoq= *Urushli joy – mozor*¹.

Dissertasiyaning “**Harbiy diskursda ingliz va o'zbek frazeologik birliklari qo'llanishining pragmatik xususiyatlari**” deb nomlangan (3 banddan iborat) uchinchi bobida harbiy diskurs frazeologik birliklaridan foydalanishning konnotativ va pragmatik xususiyatlari aniqlanadi, harbiy mavzudagi ingliz va

¹Karamatova K.M., Karamatov X.S. Proverbs. Maqollar. Пословицы. – Toshkent: Mehnat, 2000. – B. 369.

o‘zbek maqollari tahlil qilinib, badiiy adabiyot matnlarida harbiy diskurs frazeologik birliklari qo‘llanilishining pragmatik vazifalari o‘rganiladi.

Frazeologik birlikka nisbatan kontekst turli funksiyalarni bajaradi: uni nutqqa kiritadi, shakli bo‘yicha u bilan mos keladigan so‘zlarning erkin birikmasidan uni chegaralaydi, denotativ mazmuni aniqlaydi, barcha turdagi majoziy va tasviriy konnotasiyalarni voqelantiradi va h.k:

My face has seen service, but there is still a good set of teeth... [W.Scott, “Chronicles of the Conongate”, ch. III]. Parchada ingliz tili frazeologizmi *to have seen service* birinchi ma’nosida qo‘llangan: 1) tajribali askar, janglarda qatnashmoq, jangovar tajribaga ega bo‘lmoq¹. Frazeologik birlikning semantikasi metonimik qayta anglanish tufayli o‘ziga xos stilistik rangga ega bo‘ladi: *my face has seen service* – so‘zma-so‘z: “Mening yuzim janglarda bo‘lgan”, ya’ni men janglarda qatnashganman. Quyidagi qo‘shma gapning ikkinchi qismi asosida kulgili, hazilona kuchli taassurot paydo bo‘ladi: *but there is still a good set of teeth* – so‘zma-so‘z: “Ammo menda juda yaxshi tishlar to‘plami bor.” Umumiy semantik ma’noda ko‘p janglarda qatnashgan va tishlarini sog‘lom saqlagan tajribali askarni nomlab, frazeologizm ijobiy konnotasiyaga ega bo‘ladi.

Konnotasiya til birliklarining semantikasiga uzual yoki okkazional tarzda kiritiladigan va nutq sub’yektining gapda ko‘rsatilgan voqelikka hissiy-baholovchi va stilistik jihatdan belgilangan munosabatini ifodalovchi semantik mohiyat bo‘lib, ma’lumotlar asosida ekspressiv ta’sirga ega bo‘ladi². Qahramonga ijobiy baho va hayrat tuyg‘usini bildiruvchi frazeologik birlikning konnotasiyasiga misol keltiramiz:

U “Shermat polvon” degan nom chiqardi [P.Tursun]. Gapda *nom chiqarmoq* (*qozonmoq*), yani mashhur bo‘lmoq³ frazeologik birligi qo‘llangan.

Frazeologik semantikada konnotativ-pragmatik aspektning yuqori ahamiyatga egaligi ko‘p jihatdan majoziy qayta anglanish asosida qurilgan barcha frazeologik birliklar semantik tuzilishining ikki o‘lchovlilik bilan izohlanadi. Bunda konnotativ-pragmatik aspektlikka –aktuallashmagan (voqelanmagan) konkret-ob’yektiv va aktuallashgan (voqelangan) majoziy qayta anglashilgan – sohaning frazeologik birliklarning ma’nosiga o‘zaro ta’siri natijasi sifatida namoyon bo‘ladi: *Ayyor ko‘zlarida yosh boshi bilan ko‘pni ko‘rganligi bilinib turardi* [A.Muxtor, “Opa-singillar, b.75]. Ushbu parchada ikkita frazeologik birlikning qo‘shaloq voqelanishi sodir bo‘lyapti: aniq predmet ma’nosiga ega *yosh boshi bilan* frazeologizmi (ya’ni personajning yoshligi alohida ko‘rsatilgan) va obrazli qayta anglashilgan ma’noga ega *ko‘pni ko‘rganligi* frazeologizmi (ya’ni ko‘p hayotiy tajribasi borligi ta’kidlangan). Bu yerda ma’no jihatdan qarama-qarshi bo‘lgan ikki mazmunning noodatiy o‘zaro ta’siri “yoshlik” + “katta hayot tajribasi” hamda har ikkala frazeologik birliklardagi ijobiy konnotasiya va *ayyor ko‘zlarida* iborasi

¹Кунин А. В. Англо-русский фразеологический словарь. – Изд. 3-е, испр., в двух книгах. – Москва: СЭ, 1967. – Т.2. – С. 808.

²Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. – Москва: Наука, 1986. – С. 5.

³Садыкова М. Краткий узбекско-русский фразеологический словарь. – Ташкент: Главная редакция Узбекской Энциклопедии, 1989. – С. 182.

tufayli yuzaga kelgan salbiy konnotasiyaning “to‘qnashuvi”ro‘y beradi. Natijada gapning umumiy ma’nosi ham ijobiy, ham salbiy bahoga ega ikki o‘lchovli konnotativ-pragmatik ma’noni amalga oshiradi.

